

**QASHQADARYO VILOYATINING BIRIKTIRILGAN OVCHILIK XO'JALIKLARI VA BOSHQA DAVLAT HUDUDI YERLARIDA
QUSH VA SUTEMIZUVCHI HAYVONLAR MONITORINGI**

Raxmatullayev A.Y.¹, Xo'jamkulov I.X.², Xasanov A.R.², Cho'liyev O. J.³

Qarshi davlat universiteti¹, arahmatullayev@inbox.ru

Qashqadaryo viloyati "Ovchi va baliqchilar sport jamiyati"²

Qashqadaryo viloyati Favqulodda Vaziyatlar boshqarmasi, Hayot faoliyati havfsizligi o'quv markazi³

Annotation. In total, 1356,0 hectares of hunting farms are counted in the Kashkadarya region, of which 719,0 hectares are classified as hunting farms, and 637,0 hectares are allocated to the lands of the free state fund of the Kashkadarya region. In total, 1356,0 hectares of hunting farms are counted in the Kashkadarya region, of which 719,0 hectares are classified as hunting farms, and 637,0 hectares are allocated to the lands of the free state fund of the Kashkadarya region. According to the results of the census, a population of 25 species of representatives of the vertebrate fauna was recorded on the territory of the Kashkadarya region.

O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonuni talablaridan kelib chiqib, keyingi o'n yillikda turli tabiiy ekotizimlardagi ov turlari sonini muntazam hisobga olish ishlari olib borilmoqda. Hayvonot dunyosidan foydalanish bo'yicha hozirda mavjud bo'lgan meyoriy hujjatlar hayvonlarni muntazam monitoring qilishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasining 09.07.2020 yildagi 627-sonli "Ovchilik va ov xo'jaligi to'g'risida"gi qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.09.2019 yildagi 737-son qaroriga muvofiq "Ovchilik va ov xo'jaligi to'g'risida"gi "O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori tasdiqlangan bo'lib, bu esa hayvonot dunyosining eng muhim obyektlari, xususan, ov hayvonlari va boshqa iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa turdagi turlarining holatini muntazam baholash va prognozini yanada ta'minlashni nazarda tutadi.

Monitoring ma'lumotlari tabiiy resurslardan barqaror foydalanish tamoyillarini hisobga olgan holda ov hayvonlarini populyatsiyasi va sonini aniqlash uchun asos bo'ladi. Shuningdek, hududdagi fauna jamoasini bashorat qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2014 yil 20 oktyabrdagi "Biologik resurslardan oqilona foydalanish va ularni O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish va olib kirishni tartibga solish to'g'risidagi" №290 qaroriga asosan, Qashqadaryo viloyatining ov xo'jaliklari va erkin hududlaridagi qushlar va sut emizuvchi hayvonlarning 2024-2025 yillardagi ov mavsumi oldidan turlar soni ro'yxatga olish va tahlil qilish.

Qushlar va sut emizuvchi hayvonlar monitoringi, Qashqadaryo viloyatining 2 ta "Ovchi - baliqchi sport bo'limi" (Dehqonobod, Sandiqli) va boshqa barcha tumanlarning erkin hududlarida olib borildi. Sanoq ishlari zoologiyada umum qabul qilingan metodlar asosida amalga oshirildi [4, 5, 6, 7, 8, 9, 10]. Shuningdek, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan nashr qilingan "O'zbekiston Respublikasida hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobi va monitoringini yuritish bo'yicha uslubiy qo'llanma"dan, Viloyat Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish boshqarmasi jamoasi va mahalliy ovchilarning ma'lumotlariga asoslandi. Turlar ro'yxatini tayyorlashda asos etib "O'zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va baliq ovlash qoidolari" dan foydalanildi (2006). Hayvonlarni kuzatishda, optik truba - Nikon Coolpix P1000 va SONY 50x, Canon 75x obektivga ega fotokameralar qo'llanildi. Budan tashqari, ov xo'jaligi xodimlari tomonidan yig'ilgan materiallarini anketalashtirish orqali ma'lumotlar yig'ildi.

Mavsum oldi monitoringi, viloyat bioxilma-xilligini o'rganish sohasidagi muhim masalalardan biri, noyob ham ovchilik turlari maqomiga ega bo'lgan sut emizuvchi hayvonlar va qush turlarining holatini baholash, sanog'ini o'tkazishdan iborat. Viloyat bo'ylab o'tkazilgan sanoq jarayonida 25 turdagi qushlar va sut emizuvchi hayvonlarning hududlar bo'yicha tarqalishi, Dehqonobod va Sandiqli ovchilik xo'jaligi hamda ov xo'jaligiga birlashtirilgan hududlaridagi populyatsiyalari qayd etildib, tahlil qilindi (jadval). Har bir tur populyatsiyasining umumiy sonidan, 8-10% gacha ovlash mumkinligi yuzasidan tavsiya berildi.

Davlat kadastri, qushlar va sut emizuvchi hayvonlar tarqalishi, miqdori, ularning yashash joylarini baholash kabi ma'lumotlar to'plashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish bo'yicha tafsilyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jadval

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2024 yil ov mavsumi uchun ovlashga tavsiya etiladigan ov hayvonlar va qushlar turlari va miqdori

№	Ov qilinadigan hayvon turlari	Dehqonobod	Sandiqli	Ov xo'jaligiga birlashtirilgan hudud	Viloyat bo'yicha Jami :	Ovlashga tavsiya etilgan
1	To'ng'iz (Yovvoyi cho'chqa)	93	72	85	250	20
2	Tog' echkisi	89	-	99	188	15

3	Elik	119	81	103	303	24
4	Bo'rsiq	94	101	89	284	22
5	Tulki	495	597	438	1530	122
6	Jayra	115	92	97	304	24
7	Quyovon	22093	24804	16237	63134	6313
8	Shoqol	882	809	643	2334	186
9	Bo'ri	163	141	132	436	34
10	Qirg'ovul	32531	23245	15634	71410	7141
11	Kaklik	19831	12915	8433	41179	4117
12	Go'z	45773	57231	32739	135743	13574
13	Yovvoyi o'rdak	52364	61973	44128	158465	15846
14	Красноносый нырок	13179	18132	17231	48542	4854
15	Olmabosh	41050	39153	25221	115424	9233
16	Churrak	22131	23768	22735	68634	6863
17	Катта Қорабузоқ	18765	22134	16231	57130	4570
18	Qashqaldoq	51016	69219	12195	132430	10595
19	Gov kaplar	7384	6412	3994	17790	1423
20	Yovvoyilashgan xonaki kaplar	175697	187977	99369	463043	46304
21	Katta g'urrak	36712	36548	19012	92272	7381
22	Qumri	35312	33009	22983	91304	7304
23	Bedana	6382	9912	7341	23635	1891
24	Qorabaur	10197	14136	7248	31581	3158
25	Botqoq qushi	3868	17104	14285	35257	2820

2024 yil mavsumlar bo'yicha ov obyektlarining jami, 1356,0 ga hududida sanoq o'tkazilib, shundan 719,0 ga birlashtirilgan ovchilik xo'jaliklarida, 637,0 ga esa Qashqadaryo viloyati erkin davlat fondi yerlarida o'tkazildi. Qishlaydigan suv qushlarining turlar tarkibi va soni ularning migratsiyaning intensivligiga, iqlim sharoitiga, populyatsiyalarning uyalash joylarida bola ochishi, antropogen bezovtalikka va boshqa ko'plab omillarga qarab o'zgarib turishi aniqlandi. Sanoq natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyati hududida 25 turdagi umurtqali hayvonlar fauna vakillarining populyatsiysi uchrashi qayd qilindi. O'tkazilgan sanoqlar hayvonlarning yashash muhiti va ov obyektlarining umumiy holati, mutaxassislarning anketa so'rovnomalari, shuningdek oldingi yillarda to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash orqali, so'ngi yillardagi ov mavsumi uchun asosiy ov obyektlarining sonini tahmin qilishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Ўзбекистон Республикасининг 09.07.2020 йилдаги 627-сонли “Овчилик ва овчилик хўжалиги тўғрисида” ги Қонуни.
- 2.Ўзбекистон Республикасининг 09.19.2016 йилдаги 408-сонли “Ёввойи Табиатни муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида” ги Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида.
- 3.Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қизил Китоби: II жилд, ҳайвонлар, Тошкент - 2019. 391 б.
- 4.Методическое руководство по ведению государственного учета и мониторинга объектов животного и растительного мира Республики Узбекистан. Ташкент, 2021. 200 с.
- 5.Новиков Г.А. Полевые исследования экологии наземных позвоночных животных. М.: “Сов.наука”, 1949. 502 с.

6. Нумеров А.Д., Климов А.С. Труфанова Е.И. // Полевые исследования наземных позвоночных. Воронежский Государственный университет - 2010. 400 с.
7. Правила охоты и рыболовства на территории Республики Узбекистан. Ташкент. 2006. 51 с.
8. Bobonazarov G. Y. Bioxilma-xillik. Darslik. Qarshi "Nasaf" NMIU nashriyoti, 2021. 317 bet.
9. K. Mullarney, L. Svensson, D. Zetterström, J. Peter. Collins Bird Guide. Grant. - 2009. P.448.
10. BirdLife International (2021) Important Bird Areas factsheet: Ayakaghytma lake and surrounding desert. Downloaded from <http://www.birdlife.org> on 06/04/2021.
11. Kh. Boymurodov, S. Khorazov, G. Bobonazarov, & B. Davronov (2024). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE POPULATION INDICATORS OF THE SPECIES SINANODONTA GIBBA AND SINANODONTA RUERORUM OF THE UNIONIDAE FAMILY IN THE WATER ECOSYSTEMS OF THE SYRDARYO AND SANGZOR RIVERS. Science and innovation, 3 (D5), 13-18. doi: 10.5281/zenodo.11137993
12. Qizi N. Z. B. QASHQDARYO HUDUDIDA TARQALGAN ORTHETRUM NEWMAN, 1833 AVLODIGA MANSUB NINACHILAR TAKSANOMIYASI VA MORFOBIOLOGIYASI // In The World Of Science and Education. – 2024. – №. 20 сентябрь БН. – С. 18-20.
13. kizi Norkobilova, Z. B., Rakhmatullayev, A. Y., & ogli Boyjigitov, O. D. (2023). PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION. World of Scientific news in Science, 1(3), 5-14.
14. Qizi, N. Z. B. (2024). PROSPECTS FOR THE FUTURE STUDY OF THE ODONATA ORDER: A REVIEW OF PUBLISHED ARTICLES FROM THE SCOPUS DATABASE 2019–2023. European science review, (3-4), 13-22.
15. Pirmatova, H. G., Norov, I. B., Zubaydova, Z. T., & Raxmatullayev, A. Y. YAYLOV VA AGROTSENOZLARDA CHAYONLAR (SCORPIONES) TURKUMI VAKILLARINING TAQSIMLANISHI. ПСАММОФИТЛАР ГУРУҲИГА МАНСУБ ҚОРАҚАЛПОҒИСТОННИНГ ДОРИБОР ЎСИМЛИКЛАРИ, 195.

Internet-sayti

2. <https://checklist.cites.org/#/en>.
3. <http://wpe.wetlands.org>.